

Mavzu: Uy Xo'jaligi Va Uning Xillari

Yusufova Nilufar¹, Nurullayeva Adiba², Usmonov Murodbek Dusmurot o'g'li³

Annotatsiya: Mazkur maqola uy xo'jaligi tushunchasi, uning turlari va oilaviy hayotdagi ahamiyatini keng qamrovda tahlil qilishga qaratilgan. Uy xo'jaligi oilaning asosiy ehtiyojlarini qondirishda muhim iqtisodiy birlik sifatida qaraladi va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni tashkil etadi. Maqolada uy xo'jaligining to'rtta asosiy turi – iste'molga yo'naltirilgan, o'z-o'ziga yetarli, daromad keltiruvchi va qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan xo'jaliklar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Iste'molga yo'naltirilgan xo'jalik asosan oilaning kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa, o'z-o'ziga yetarli xo'jalik oilaning o'z resurslarini mustaqil boshqarishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, daromad keltiruvchi xo'jaliklar oilaga qo'shimcha daromad olish imkonini yaratadi, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan xo'jaliklar esa yer va boshqa tabiiy resurslarni samarali ishlatishga qaratilgan. Har bir xo'jalik turi oilaning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Maqolada, uy xo'jaligining oilaviy iqtisodiyotdagi o'rni, resurslarni samarali boshqarish va oilaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli chuqur tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotdan olingan natijalar uy xo'jaliklarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning dolzarbligi haqida tasavvur beradi, hamda oilalarga iqtisodiy farovonlikka erishishda qanday yo'llarni tanlash mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Uy xo'jaligi, oila, inson kapitali, himoya vazifalari, buyruqbozlik iqtisodiyotida uy xo'jaligi, bozor iqtisodiyotida uy xo'jaligi, o'tish iqtisodiyoti davrida uy xo'jaligi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish, moliyaviy resurslar, jamg'armalar.

Uy xo'jaligi iqtisodiy faoliyatning muhim subyektlaridan biri hisoblanib, nafaqat oila yoki xo'jalik, balki butun mamlakat aholisining farovonligi uning natijalariga bog'liq.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, uy xo'jaligi tushunchasiga hozirgacha yagona ta'rif berilmagan. Mualliflar uy xo'jaligi mohiyatining turli dastlabki tushunchalari va uning funksiyalarini bosh asos qilib olgan holda, o'z ta'riflarini berganlar

"Uy xo'jaligi" tushunchasi tor ma'noda oila a'zolariga maishiy xizmat ko'rsatish, shaxsiy yordamchi xo'jalikni yuritish, uyda natura holda mahsulot ishlab chiqarish kabi xo'jalik yuritish bo'yicha an'anaviy uy ishlari yig'indisini o'z ichiga oladi. Hozirgi "uy xo'jaligi" tushunchasi keng ma'noda o'ta murakkab, ko'p qirrali va ko'p jihatli bo'lib, "individ" va "oila" tushunchalari bilan tavsiflanuvchi, lekin ayni paytda unga o'xshash bo'lmagan (chunki u bir individdan ham, bir necha oila a'zolaridan ham tarkib topishi mumkin) iqtisodiy kichik tizim ya'ni tashkilot sifatida ko'rib chiqiladi. "Uy xo'jaligi" tushunchasining yuqoridagi ta'riflarda izohlanishi ushbu kategoriya ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatining asta-sekin vujudga kelishi va shakllanishining mantig'ini aks ettiradi.

Ko'pincha uy xo'jaliklari oilaning iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va statistik belgilanishi sifatida ko'rib chiqiladi. Oila an'anaviy tarzda nikoh- qarindoshlik munosabatlari, birgalikda hayot kechirish, umumiy budjet va birgalikda xo'jalik yuritish belgilari bilan ta'riflanadi.

Oila xo'jalik nuqtai nazaridan, birinchi navbatda, uy xo'jaligi negizi sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda xo'jalik-iqtisodiy tavsiflar, insonlarni kichik guruhga birlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar birinchi o'ringa qo'yiladi. Shunday qilib, "uy xo'jaligi" tushunchasining mazmuniy ahamiyati ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishga ega bo'ladi. U oilaning ijtimoiy tarkibi, daromad-mulkiy hamda sarf-xarajat va iste'mol qilish salohiyati bilan tavsiflanadi.

^{1,2} SamISI talabasi

² O'qituvchi



Oila xo'jaligi 3turga bo'lib o'rganiladi: oilaviy, oiladan tashqari, jamoaviy (shaxslar guruhi)

Uy xo'jaligining maqsadi - kutilmagan holatlar yuzaga kelishidan qat'i nazar o'z oila a'zolariga farovonlikning kafolatlangan darajasini ta'minlashdan iborat. Uy xo'jaligining himoya vazifasi o'zaro yordam va oila a'zolarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning rasmiy va norasmiy me'yorlariga asoslanadi.

1. Uy xo'jaligi faoliyatining asosiy funksiyasini inson kapitalini ishlab chiqarish, realizasiya qilish va saqlash sifatida belgilash lozim. Inson kapitali, o'z navbatida, insonning bilimlari, amaliy ko'nikmalari va mehnat sa'y-harakatlari yig'indisi sifatida tushuniladi. Uy xo'jaligining inson kapitalini shakllantirish bo'yicha quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin .
2. Uy xo'jaligi faoliyatida inson kapitalini tiklash va saqlash. Ushbu funksiyalarni bajarishda ikkita asosiy vazifa hal etiladi. Birinchisi, uy xo'jaligi budjetini shakllantirish va undan foydalanish. Ikkinchisi, uy xo'jaligini yuritish. Bu vazifalar uy xo'jaliklari xarajatlarini qoplash va inson kapitalini shakllantirib (jamg'arib) borish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.
3. Uy xo'jaligida inson kapitalini ishlab chiqarish (shakllantirish), ya'ni bola tug'ilishi, uni tarbiyalash, voyaga yetkazish va ijtimoiy funksiyalarini bajarish hisoblanadi. Bular o'z navbatida inson kapitaliniamalda turli yo'nalishlarda ishlatish funksiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.
4. Uy xo'jaligining inson kapitalidan foydalanish, amalda ikkita funksiyani o'z ichiga oladi. Birinchisi, oila biznesini hamda qishloqda dehqon xo'jaligini yuritish (ishlab chiqarish) va ikkinchisi, uy xo'jaligi a'zolarining bozor munosabatlaridalyakka tartibda yoki korporativ shaklda ishtirok etish funksiyalari.

Uy xo'jaligining ushbu funksiyalarini hayotda amalga oshirish, bir tomondan oila hamda uning boshlig'iga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan davlatning uy xo'jaliklarini tartibga solish, ularni qo'llab-quvvatlash tizimiga ham bog'liq hisoblanadi.

Korxonalar yoki davlatning hamma uchun bir xil (universal) modeli bo'lmagani kabi, uy xo'jaligining ham yagona modeli mavjud emas. Shu munosabat bilan turli iqtisodiyotlar sharoitida shakllangan uy xo'jaligining uchta shaklini ajratish mumkin. Ular qatoriga-bozor iqtisodiyoti, buyruqbozlik iqtisodiyoti va buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida faoliyat yurituvchi uy xo'jaliklarini kiritish mumkin.

Buyruqbozlik iqtisodiyotida uy xo'jaligining shakllanishini iqtisodiy jihatdan asoslash uning negizida tanqis tovar va resurslardan foydalanishni kengaytirishdan iborat bo'lgan. Partiya-davlat pog'onasidagi o'rniga ko'ra noyob resurslardan foydalanishning tabaqalanishi uy xo'jaligi va davlatning o'zaro munosabatlari turini alohida ifodalagan

Uy xo'jaligining davlatga yuqori darajada qaramligi buyruqbozlik iqtisodiyotining ko'z ilg'amas tizim sifatida tavsiflash imkonini beradi. Biror-bir ijtimoiy guruh davlat hokimiyati boshqaruvi va davlat resurslarini taqsimlash tizimiga qancha yaqin bo'lsa, uning ijtimoiy va iqtisodiy mavqei shuncha yuqori bo'lgan. Shuning uchun uy xo'jaligini birinchi galda davlat siyosatining unga partiya-davlat pog'onasidagi mavqei asosida rentani olish imkonini beruvchi yo'nalishlari qiziqtirgan, bular. pensiya; uy-joy kommunal xizmatlari siyosati; ijtimoiy ta'minot siyosati, ta'lim sohasidagi siyosat.

Bozor instituti uy xo'jaligini kamyob tovar va xizmatlarni izlash hamda ular uchun navbatda turish bilan bog'liq vaqtning yo'qotilishidan xalos etadi xarid qilish jarayoni mutaassiblikka (har kun takrorlanadigan bir xildagi yumush, vazifa) aylanadi,

Uy xo'jaligining asosiy daromad manbalarini bozor bilan belgilanadigan sohaga yo'naltirish uning davlatdan kam qaram bo'lishini ta'minlaydi. Davlat faoliyati uy xo'jaligini faqatgina davlat mehnat bozorida bitimlar kafolati sifatida ishtirok etish darajasi va u uy xo'jaligi daromadining bir qismiga da'vogar bo'lishi uchun qiziqtiradi.

Uy xo'jaligi faoliyat yuritadigan institutsional muhitning noaniqligi va beqarorligi mutaassibliklarning mavjud bo'lishini shubha ostiga qo'yadi. Bunday sharoitda mutaassibliklar doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishini talab etadi, ya'ni ular inson ongining ongsiz sohasidan ongli va doimiy e'tiborni talab



etuvchi sohasiga o'tadi. Islohotlar qancha faol amalga oshirilsa, ularning mutaassibliklarga nisbatan salbiy ta'siri shuncha kuchli bo'ladi. Bundan o'tish iqtisodiyotida uy xo'jaligining maqsadi kelib chiqadi: uy xo'jaligining himoya funksiyasini saqlab qolishga intilish borgan sari ortib boruvchi sa'y-harakatlarni va imkon qadar ko'p e'tiborni talab etadi.

Uy xo'jaligida moliyaviy resurslar – bu oilaning kundalik xarajatlarini qoplash, kelajak uchun tejash va turmush sharoitlarini yaxshilash uchun ishlatiladigan barcha mablag'lar yig'indisidir. Uy xo'jaligida moliyaviy resurslar quyidagi manbalardan shakllanishi mumkin:

1. Ish haqi va boshqa daromadlar – bu oilaning asosiy moliyaviy manbai bo'lib, oila a'zolarining maoshi, bonuslari, qo'shimcha daromadlari va mehnat faoliyatidan keladigan daromadlarni o'z ichiga oladi.
2. Pensiya va nafaqalar – nafaqadagi oila a'zolari uchun pensiya yoki davlat tomonidan beriladigan boshqa yordam mablag'lari uy xo'jaligi moliyaviy resurslarini qo'llab-quvvatlaydi.
3. Jamg'armalar va tejab qolingan mablag'lar – oila tomonidan kelajakdagi xarajatlar yoki favqulodda vaziyatlar uchun jamg'arilgan mablag'lar. Bu mablag'lar qiyin moliyaviy sharoitlarda yoki kutilmagan xarajatlarni qoplashda katta yordam beradi.
4. Investitsiyalar va aktivlar daromadi – aksiyalar, obligatsiyalar yoki ko'chmas mulk kabi investitsiyalardan olinadigan daromad. Ba'zi oilalar qo'shimcha daromad olish uchun investitsiya qilishadi.
5. Davlat va nodavlat yordam dasturlari – ba'zi hollarda davlat yoki xayriya tashkilotlaridan yordam, grant yoki subsidiya olish imkoniyatlari mavjud.
6. Qarz mablag'lari – zarur bo'lgan paytda oilalar bank kreditlari, mikro kreditlar yoki do'st-tanishlardan qarz olishlari mumkin. Biroq, qarz mablag'lari foydalanishida o'z vaqtida qaytarish va moliyaviy yuklamani hisobga olish muhimdir.

Uy xo'jaligida moliyaviy resurslarni boshqarish:

Uy xo'jaligida moliyaviy resurslarni samarali boshqarish uchun oilaning daromad va xarajatlarini rejalashtirish, ortiqcha xarajatlardan saqlanish, jamg'arish odatlarini shakllantirish va favqulodda holatlar uchun zaxira mablag'larni ajratish zarur. Shu bilan birga, oilada moliyaviy intizomni saqlash va uzoq muddatli moliyaviy maqsadlar qo'yish oila moliyaviy barqarorligiga xizmat qiladi.

Xulosa: Uy xo'jaligi oilaning asosiy hayotiy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan va bir qancha turlarga bo'linadigan iqtisodiy faoliyatdir. Iste'molga yo'naltirilgan, o'z-o'ziga yetarli, daromad keltiruvchi va qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi xo'jaliklar oilaning iqtisodiy mustaqilligini oshirish va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, uy xo'jaligi oilaning o'z resurslarini to'g'ri boshqarishi va o'z ehtiyojlarini qondirishi uchun imkoniyat yaratadi. Har bir xo'jalik turi o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, oilaning iqtisodiy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berkinov B.B., Yakubov I.O., Sunnatov M.N., *Institutsional iqtisodiyot: fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha. -O'quv qo'llanma. -T.:2019.-*
2. B.B.Berkinov. *Institutsional iqtisodiyot. Darslik. 4-nashr, qayta ishlangan. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot- matbaa uyi», 2021-324 b.*
3. Sharipov A., *"Uy xo'jaligini boshqarish va oilaviy iqtisodiyot"*, Toshkent, 2018.

